

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

# O'QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-  
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“IQTISODIYOT”  
YO'NALISHI**

**“EKONOMETRIKA VA ILMIY TADQIQOT  
USULLARI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O'QUV USLUBIY  
MAJMUA**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yil 07 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:**

N.M. Maxmudov - TDIU "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Taqrizchi:**

T.S.Qo'chqorov - TDIU "Iqtisodiyotda matematik metodlar kafedrasi" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA`LIM METODLARI.....</b>	<b>10</b>
<b>III. MA`RUZA MATNLARI.....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>33</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>43</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>54</b>

## **ISHCHI DASTUR** **KIRISH**

Mazkur ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruв mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60 sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz til, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

**Modulning maqsadi va vazifalari**  
**“Ekonometrika va ilmiy tadqiqot usullari” modulining maqsadi:**

- pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan miqdoriy tizimli tahlil usullarini qo‘llash orqali kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

“Ekonometrika va ilmiy tadqiqot usullari” modulining **vazifalari**:

- “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning professional bilim, tizimli tahlil etish ko‘nikma, dars berish va talabalar bilimini nazorat qilish kompetentligini oshirish;

- pedagoglarning jahon reytingida qatnashishdagi ijodiy-innovatsion faolligini oshirish;

- mutaxassislik fanlarini o‘qitishga tubdan yangicha yondashish va distatsion o‘qitish usullarini qo‘llashga o‘quv - uslubiy materiallarni tayyorlash va qo‘llash ko‘nikmalarini singdirish;

- maxsus fanlarni yetakchi xalqaro universitetlar darajasida o‘qitishning innovasion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlash va innovatsiyalar yaratish mahoratini shakllantirish;

- “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini Universitet – 3.dasturi dorasida ilm, ma’rifat va ishlab chiqarishdagi o‘zaro integrasiyasini ta’minlash ko‘nikmalarini kuchaytirish;

- Sohaga tegishli xalqaro (Scopus) jurnallarida maqolalarni chop etish mahoratini shakllantirish, raqobat sharoitida ishslash tajribasini oshirish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Ekonometrika va ilmiy tadqiqot usullari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar quyidagi yangi professional bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyalarining ilmiy-amaliy asoslarini;

- ekonometrik usullar va modellar turlarini, jumladan, tizimli dasturlar paketlarini;

- barqaror iqtisodiy o‘sish indikatorlarini prognozlash usullari va modellarini;

- iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotining ilmiy-amaliy asoslarini ;

- iqtisodiy ko‘rsatkichlar va indikatorlarni tizimli miqdoriy tahlil etish, sintezlash va prognozlash asoslarini **bilishi kerak**.

#### **Tinglovchi:**

- makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy indikatorlarni miqdoriy tahlil etish va sintezlash, foydalanimagan rezervlarni aniqlash, noxush tendensiyalarini prognozlash;

- ekonometrik modellar yordamida barqaror iqtisodiy o‘sish omillarini aniqlash;

- milliy iqtisodiyotning amal qilishi va innovatsion taraqqiyoti qonuniyatlarini bilishga tayanib, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish va natijada

xalqaro(Scopus) jurnallarda maqola chop etishda ekonometrika va ilmiy tadqiqot usullarini qo'llash;

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlarni tahlil qilish orqali takomillashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish kabi **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**

**Tinglovchi:**

- iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda iqtisodiy qonunlar evolyusiyasini anglash, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni) qarorlar qabul qilishda foydalanish;
- iqtisodiy jarayonlarni amaliy ekonometrik tahlil qilish;
- innovatsion rivojlanish jarayonlarini tadqiq qilishda ekonometrik modellar tizimida foydalanish;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda maxsus kompyuter dasturlaridan (STATA, EVIEWS) foydalanishga oid **malakalariga ega bo'lishi zarur.**

**Tinglovchi:**

- jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish va olingan xulosalarni keng jamoatchilikka tushuntirib berish hamda iqtisodiyot sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;
- ekonometrik tahlillar asosida tarmoqlar va korxonalarning rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- tuzilgan ekonometrik modellarni tarmoqlar va korxonalar faoliyatiga qo'llay olish;
- tizimli tahlil asosida klasterlarni barpo etishda optimal boshqaruven qarorlarini qabul qilish;
- tarmoqlar va korxonalar iqtisodiy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish va qo'llash;
- real sektor tarmoqlari va korxonalarining faoliyatini tahlil qilish va ularni rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish, import o'mini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish, korxonalarni innovatsion va strategik rivojlantirish ssenariylarini ishlab chiqish **kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Ekonometrika va ilmiy tadqiqot usullari" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Zamonaviy bozor tuzilmalari, xususiyatlari va tartibga solish mexanizmlari”, “Makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotni barqarorlashuvi muammolari” va “Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umummutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagи o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy ekonometrik modellarni tuzish va ilmiy tadqiqot usullarini qo‘llashdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholash hamda optimal qarorlar qabul qilish va prognozlashga doir umummutaxassislik kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>			
		Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		jamii	jumladan		
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1	Ekonometrika fanining predmeti, metodi hamda tadqiqot usullari	4	2	2	
2	Ekonometrik modellarni tuzish, baholash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish	2		2	
3	Ishlab chiqarish funksiyalari. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda ekonometrik modellardan foydalanish	4	2	2	
4	Dinamik qatorlar asosida ekonometrik modellar tuzish va tizimli tahlil etish.	6	2	4	
5	Makon va zamon bo‘yicha tuplangan ma’lumotlar ( <b>Panel Data</b> ) asosida ekonometrik modellarni tuzish	2		2	
<b>Jami:</b>		<b>18</b>	<b>6</b>	<b>12</b>	

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Ekonometrika fanining predmeti, metodi hamda tadqiqot usullari**

Ekonometrik modellashtirishning nazariy asoslari, iqtisodiyotda ekonometrik modellashtirishning zarurligi, ekonometrik model tushunchasi, turlari va undagi o‘zgaruvchilar, ekonometrik modellashtirish bosqichlari

### **2-mavzu: Ishlab chiqarish funksiyalari. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda ekonometrik modellardan foydalanish**

Ishlab chiqarish funksiyalari. Kobba-Duglas funksiyasi. Ishlab chiqarish funksiyasi xarakteristikalari, chiziqli va chiziqsiz ko‘p omilli iqtisodiy bog‘lanishlar, umumlashtirilgan va bevosita “eng kichik kvadratlar usuli”, ekonometrik model parametrlarining iqtisodiy tahlili va elastiklik koeffitsiyentlarini hisoblash, ekonometrik modellarni baholash, vaqtli qatorlar va ularni prognozlash

### **3-mavzu: Dinamik qatorlar asosida ekonometrik modellar tuzish va tizimli tahlil etish.**

Dinamik vaqtli qatorlar, ulardagi tendensiyani aniqlash. Dinamik vaqtli qatorlarni statsionarlikka tekshirish.Kointegratsiya.Avtokorrelyasiya va avtoregressiya. AR va VAR modellari.Uoxonson va Grenjer testi. Modellarni tahlil etish va tavsiyalar yaratish

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Ekonometrika fanining predmeti, metodi hamda tadqiqot usullari**

Ekonometrik modellashtirishning nazariy asoslari, iqtisodiyotda ekonometrik modellashtirishning zarurligi, ekonometrik model tushunchasi, turlari va undagi o‘zgaruvchilar, ekonometrik modellashtirish bosqichlari. Dasturiy ta’mintalar: Excel, Stata, Eviews dasturlarida ishlash

### **2-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Ekonometrik modellarni tuzish, baholash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish**

Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda bog‘likliklar turlarini o‘rganish, korrelyasiya koeffitsiyentining turlari va hisoblash usullari, chiziqli va chiziqsiz regression bog‘lanishlar, korrelyasion-regression tahlilda “eng kichik kvadratlar” usulining qo‘llanilishi. Excel dasturida ishlash

### **3-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Ishlab chiqarish funksiyalari. Prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish**

Ishlab chiqarish funksiyalari. Kobba-Duglas funksiyasi. Ishlab chiqarish funksiyasi xarakteristikalari, chiziqli va chiziqsiz ko‘p omilli iqtisodiy bog‘lanishlar,

umumlashtirilgan va bevosita “eng kichik kvadratlar usuli”, ekonometrik model parametrlarining iqtisodiy tahlili va elastiklik koeffitsiyentlarini hisoblash, ekonometrik modellarni baholash, vaqtli qatorlar va ularni prognozlash. Stata, Eviews dasturlarida ishslash

#### **4-amaliy mashg‘ulot:**

##### **Dinamik qatorlar asosida ekonometrik modellar tuzish va tizimli tahlil etish.**

Dinamik vaqtli qatorlar, ulardagi tendensiyani aniqlash. Dinamik vaqtli qatorlarni statsionarlikka tekshirish. Kointegratsiya. Avtokorrelyasiya va avtoregressiya. AR va VAR modellari. Uoxonson va Grenjer testi. Modellarni tahlil etish va tavsiyalar yaratish

#### **5-amaliy mashg‘ulot:**

##### **Makon va zamon bo‘yicha tuplangan ma’lumotlar (Panel Data) asosida ekonometrik modellarni tuzish**

Dinamik vaqtli qatorlarning nostatsionarligi. Ma’lumotlarni vaqt va makon bo‘yicha to‘plash zarurati. O‘zgarmagan samara (Fixed Effect) va tasodifiy samara (Random Effect) modellari. Ularni tuzish va tahlil etish

### **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Mazkur modulning o‘quv rejasida ko‘chma mashg‘ulotlar rejalashtirilmagan.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish;
- babs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA`LIM METODLARI**

### **«Blum kubogi» metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:
  - **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
  - **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
  - **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
  - **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
  - **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
  - **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**
2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O‘qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### **“KWHL” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### **Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?.*

“KWHL” metodi	
1. <i>Nimalarni bilaman:</i> -	2. <i>Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</i> -
3. <b>Qanday qilib bilib va topib olaman:</b> -	4. <i>Nimalarni bilib oldim:</i> -


### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliumlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

## “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



## “VYER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Vyer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyl muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarни



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'r ganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'r ganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'r ganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:


“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.




- **Test**

**Muammoli vaziyat**



**Tushuncha  
(simptom)**

**tahlili**



**Amaliy vazifa**

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### III. MA`RUZA MATNLARI

#### 1-mavzu: Ekonometrika fanining predmeti, metodi hamda tadqiqot usullari

##### 1. Ekonometrik modellashtirishning nazariy asoslari va iqtisodiyotda ekonometrik modellashtirishning zarurligi.

Natija va omil, sabab va oqibat tahlili. Regression tahlilning ekonometrik nazariyasi. Bir omilli va ko‘p omilli regressiya. Bog‘liqliklarni o‘rganishda korrelyasion tahlildan foydalanish. Korrelyasiya koeffitsiyenti va uning turlari. Korrelyasiya va kovariatsiya koeffitsiyentlari. Korrelyasiya koeffitsiyentining ishonchligini tekshirishda qo‘llaniladigan testlar.

Juft chiziqli regressiya. Eng kichik kvadratlar usuli. Gauss-Markov teoremasi. Regressiya koeffitsiyenti to‘g‘risidagi gipotezalarni tekshirish. Geteroskedastlik va gomoskedastlik. Ko‘p omilli regressiya modelini spetsifikatsiyalash. Omillarning multikollinearligi. Uni bartaraf etish usullari. Chiziqli bo‘lmagan regression modellar. Chiziqsiz regressiya funksiyalarini modellashtirishning umumiyligi strategiyasi

Ekonometrik usullar oddiy an’anaviy usullarni inkor etmasdan, balki ularni yanada rivojlantirishga va ob’ektiv o‘zgaruvchan natija ko‘rsatkichlarini boshqa ko‘rsatkichlar orqali muayyan tahlil qilishga yordam beradi. Ekonometrik usullarning va kompyuterlarning milliy iqtisodiyotni boshqarishda afzalliklaridan biri shundaki, ular yordamida modellashtiruvchi ob’ektga omillarning ta’sirini, natija ko‘rsatkichiga resurslarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘nlab tarmoqlar va minglab korxonalarda ishlab chiqarish natijalari va milliy iqtisodiyotning ilmiy asosda prognozlashtirish va boshqarishga imkon beradi.

**Ekonometrika=ekonomika+metrika.** Ekonometrik modellash iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zgarish qonuniyatlarini, tendensiyalarni aniqlash natijasida ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy jarayonlarni rivojlanish va prognozlash yo‘llarini belgilaydi.

Iqtisodiy ma’lumotlar dinamik qator yoki dinamik ustun ko‘rinishida tuziladi, ya’ni ular vaqt bo‘yicha o‘zgaradilar. Kuzatuvar soni omillar sonidan 4-5 marta ko‘proq bo‘lishi kerak.

**Ekonometrikani asosiy maqsadi** – omillararo bog‘lanishlarni, o‘zgarish qonuniyatlarini va tendensiyalarni o‘rganish hisoblanadi.

Ekonometrik modellashtirish va modellarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) Ekonometrik usullar yordamida moddiy, mehnat va pul resurslaridan oqilona foydalaniladi.
- 2) Ekonometrik usullar va modellar iqtisodiy va tabiiy fanlarni rivojlantirishda yetakchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.
- 3) Ekonometrik usullar va modellar yordamida tuzilgan prognozlarni umumiyligi amalga oshirish vaqtida ayrim tuzatishlarni kiritish mumkin bo‘ladi.
- 4) Ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy jarayonlar faqat chuqur tahlil qilibgina qolmasdan, balki ularning yangi o‘rganilmagan qonuniyatlarini ham

ochishga imkon yaratiladi. Shuningdek, ular yordamida iqtisodiyotning kelgusidagi rivojlanishini oldindan aytib berish mumkin.

5) Ekonometrik usullar va modellar hisoblash ishlarini avtomatlashtirish bilan birga, aqliy mehnatni yengillashtiradi, iqtisodiy soha xodimlarining mehnatini ilmiy asosda tashkil etadi va boshqaradi.

Asosiy ekonometrik usullar – bu matematik statistika usullari va ekonometrik usullar.

Matematik statistika usullari - dispersion tahlil, korrelyasiya tahlili, regressiya tahlili, omilli tahlil, indekslar nazariyasi.

Ekonometrik usullar - iqtisodiy o'sish nazariyasi, ishlab chiqarish funksiyasi nazariyasi, talab va taklif nazariyasi.


Ekonometrikani o'rganish jarayoni – bu iqtisodiyot, iqtisodiy jarayonlarning ekonometrik modellarini tuzish jarayonidir.

Asosiy qo'llanadigan usuli – korrelyasion-regression tahlil usuli.

Ekonometrik modellashtirish quyidagi ilmiy yo'nalishlar kompleksidir:

- iqtisodiy nazariya;
- ehtimollar nazariyasi;
- matematik statistika;
- kompyuter texnologiyalari.

### Ekonometrik taxlil boskichlari



Ekonometrik model – bu ehtimollik - stoxastik model. Bu model yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarish qonuniyatlarini matematik ko'rinishida tenglamalar, tengsizliklar va tenglamalar tizimi ko'rinishda ifodalash mumkin. Umumiyo ko'rinishida ekonometrik model quyidagicha yoziladi:

$$Y = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

Ekonometrik modelda  $Y$  – asosiy endogen ko'rsatkich, modelda  $Y$  o'zgarish qonuniyatlarini  $(x_1, x_2, \dots, x_n)$  yordamida o'rganish mumkin.

$(x_1, x_2, \dots, x_n)$  – ta’sir etuvchi, ekzogen ko‘rsatkichlar.

Ekonometrik modelda fiktiv ko‘rsatkichlar qatnashishi mumkin. Fiktiv ko‘rsatkichlar – bu sifatli ko‘rsatkichlar miqdoriy ko‘rsatkichlarga o‘tkazilgan ko‘rsatkichlar.

Ekonometrik model chiziqli va chiziqsiz ko‘rinishda tuzilishi mumkin:

Chiziqsiz modellar parabola, giperbola, darajali funksiya, ko‘rsatkichli funksiya, trigonometrik funksiya va boshqalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Tuzilgan ekonometrik modelning haqiqiyligi to‘plangan ma’lumotlar hajmiga; ma’lumotlarning aniqlik darajasiga; tadqiqotchining malakasiga; modellashtirish jarayoniga; yechiladigan masalaning xarakteriga bog‘liq.

## 2. Ekonometrik modellashtirish bosqichlari

### Ekonometrik modellashtirish bosqichlari:

**Birinchi bosqich** – spetsifikatsiyalash - iqtisodiy muammoni qo‘yilishi – asosiy omillar guruhi tanlanadi, iqtisodiy ma’lumot to‘planadi, asosiy omil va ta’sir etuvchi omillar guruhi belgilanadi; korrelyasion tahlil usuli yordamida ekonometrik modelda qatnashadigan omillar aniqlanadi.

**Ikkinchi bosqich** – identifikasiya qilish. «Eng kichik kvadratlar usули» yordamida tuziladigan ekonometrik modelning parametrlari aniqlanadi.

**Uchinchi bosqich** – verifikatsiya qilish. Tuzilgan modelni ahamiyati to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha tekshiriladi:

- modelning sifati ko‘plikdagi korrelyasiya koeffitsiyenti va determinatsiya koeffitsiyenti yordamida baholanadi;
- modelning ahamiyati approksimatsiya xatoligi va Fisher mezoni yordamida baholanadi;
- modelning parametrlarini ishonchliligi Styudent mezoni bo‘yicha baholanadi;
- Darbin-Uotson mezoni yordamida «Eng kichik kvadratlar usulining» bajarilish shartlari tekshiriladi.

**To‘rtinchi bosqich** – tuzilgan va baholangan ekonometrik model yordamida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar prognoz davriga hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganish ekonometrika fanining muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda ikki xil belgilar yoki ko‘rsatkichlar ishtiroy etadi, biri bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilar, ikkinchisi bog‘liq o‘zgaruvchilar hisoblanadi. Birinchi turdagи belgilar boshqalariga ta’sir etadi, ularning o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun ular omil belgilar deb yuritiladi, ikkinchi toifadagilar esa natijaviy belgilar deyiladi. Masalan, iste’molchining daromadi ortib borishi natijasida uning tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabi oshadi. Bu bog‘lanishda talabning ortishi natijaviy belgi, unga ta’sir etuvchi omil, ya’ni daromad esa omil belgidir.

Omillarning har bir qiymatiga turli sharoitlarida natijaviy belgining har xil qiymatlari mos keladigan bog‘lanish korrelyasion bog‘lanish yoki munosabat deyiladi. Korrelyasion bog‘lanishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunda omillarning to‘liq soni noma’lumdir. Shuning uchun bunday bog‘lanishlar to‘liqsiz hisoblanadi va ularni formulalar orqali taqriban ifodalash mumkin, xolos.

Korrelyasiya so‘zi lotincha ***correlation*** so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zaro munosabat, muvofiqlik, bog‘liqlik degan ma’noga ega.

Ikki hodisa yoki omil va natijaviy belgilar orasidagi bog‘lanish **juft korrelyasiya** deb ataladi.

Korrelyasion bog‘lanishlarni o‘rganishda ikki toifadagi masalalar ko‘ndalang bo‘ladi. Ulardan biri o‘rganilayotgan hodisalar (belgilar) orasida qanchalik zich (ya’ni kuchli yoki kuchsiz) bog‘lanish mavjudligini baholashdan iborat. Bu korrelyasion tahlil deb ataluvchi usulning vazifasi hisoblanadi.

Korrrelyasion tahlil deb hodisalar orasidagi bog‘lanish zichlik darajasini baholashga aytildi.

Omillarning uzaro boglanishi 2 turga bulinadi: funksional boglanish va korrelyasion boglanish.

Yunalishlarning o‘zgarishiga karab, bog‘lanishlar ikki turga bo‘linadi: to‘gri bog‘lanish va teskari bog‘lanishlar.

Analitik ifodalarning ko‘rinishlariga qarab ham bog‘lanishlar ikki turga bo‘linadi: to‘g‘ri chiziqli va chiziksiz bog‘lanishlar.

Funksional bog‘lanishlarda bir o‘zgaruvchi belgining har qaysi qiymatiga boshqa o‘zgaruvchi belgining anik bitta qiymati mos keladi.

### 3. Korrelyasiya koeffitsiyentining turlari va hisoblash usullari.

Korrelyasion tahlil korrelyasiya koeffitsiyentlarini aniqlash va ularning muhimligini, ishonchliliginibaholashga asoslanadi. Bog‘lanishlar chiziqli bo‘lsa, u holda bog‘lanish zichligi baholashda korrelyasiya koeffitsiyentidan foydalanish mumkin:

$$r = \frac{\bar{x} \cdot \bar{y} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y},$$

bu yerda,  $\sigma_x$  va  $\sigma_y$  mos ravishda  $x$  va  $y$  o‘zgaruvchilarning o‘rtacha kvadratik chetlanishidir va ular quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\sigma_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n}}, \quad \sigma_y = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}{n}}$$

Shuningdek, korrelyasiya koeffitsiyentini hisoblashning quyidagi modifikatsiyalangan formulalaridan ham foydalanish mumkin:

$$r = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{n \cdot \sigma_x \cdot \sigma_y} \text{ yoki } r = \frac{n \sum_{i=1}^n xy - \sum_{i=1}^n x \sum_{i=1}^n y}{\sqrt{\left[ n \sum_{i=1}^n x^2 - \left( \sum_{i=1}^n x \right)^2 \right] \cdot \left[ n \sum_{i=1}^n y^2 - \left( \sum_{i=1}^n y \right)^2 \right]}}.$$

Korrelyasiya koeffitsiyenti ( $r$ ) –1 dan +1 oralig‘ida bo‘ladi. Agar  $r = 0$  bo‘lsa omillar o‘rtasida bog‘lanish mavjud emas,  $0 < r < 1$  bo‘lsa, to‘g‘ri bog‘lanish mavjud  $-1 < r < 0$  - teskari bog‘lanish mavjud  $r = 1$  funksional bog‘lanish mavjud.

Bog‘lanish zichlik darajasi odatda quyidagicha talqin etiladi.

Agar 0,2 gacha – kuchsiz bog‘lanish;

$0,2 \div 0,4$  – o‘rtacha zichlikdan kuchsizroq bog‘lanish;

$0,4 \div 0,6$  – o‘rtacha bog‘lanish;  
 $0,6 \div 0,8$  – o‘rtachadan zichroq bog‘lanish;  
 $0,8 \div 0,99$  – zich bog‘lanish.

#### 4. Chiziqli va chiziqsiz regression bog‘lanishlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o‘rtasida bog‘lanishlarni o‘rganishda quyidagi funksiyalardan foydalaniladi

Chiziqli	–	$y = a_0 + a_1x$
Ikkinchchi darajali parabola	–	$y = a_0 + a_1x + a_2x^2$
Uchinchi darajali parabola	–	$y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + a_3x^3$
$n$ -darajali parabola	–	$y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_nx^n$
Giperbola	–	$y = a_0 + \frac{a_1}{x}$
$b$ - darajali giperbola	–	$y = a_0 + \frac{a_1}{x^b}$
Logarifmik	–	$\log y = a_0 + a_1x$
Yarim logarifmik	–	$y = a_0 + a_1 \ln x$
Ko‘rsatkichli funksiya	–	$y = a_0 a_1^x$
Darajali funksiya	–	$y = a_0 x_1^{a_1}$
Logistik funksiya	–	$y = \frac{a_0}{1 + a_1 e^{-bx}}$

#### 5. Korrelyasion-regression tahlilda eng kichik kvadratlar usulining qo‘llanilishi

Regression tahlil natijaviy belgiga ta’sir etuvchi omillarning samaradorligini aniqlab beradi. Regressiya so‘zi lotincha *regressio* so‘zidan olingan bo‘lib, orqaga harakatlanish degan ma’noga ega. Bu atama korrelyasion tahlil asoschilari *F.Galton* va *K.Pirson* nomlari bilan bog‘liqidir. Regression tahlil natijaviy belgiga ta’sir etuvchi belgilarning samaradorligini amaliy jihatdan yetarli darajada aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Regression tahlil yordamida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning kelgusi davrlar uchun bashorat qiymatlarini baholash va ularning ehtimol chegaralarini aniqlash mumkin. Regression va korrelyasion tahlilda bog‘lanishning regressiya tenglamasi aniqlanadi va u ma’lum ehtimol (ishonchlilik darajasi) bilan baholanadi, so‘ngra iqtisodiy-statistik tahlil qilinadi.

Funksiyalar parametrlari odatda “eng kichik kvadratlar” usuli bilan aniklanadi. Eng kichik kvadratlar usulini mazmuni quyidagicha: xaqiqiy miqdorlarning tekislangan miqdorlardan farqining kvadratlari yigindisi eng kam bo‘lishi zarur

$$S = \sum(Y - \bar{Y}_t)^2 \rightarrow \min$$

Bir omilli chiziqli bog‘lanishni olaylik:  $Y_t = a_0 + a_1 t$

$$S = \sum(Y - \bar{Y}_t)^2 = \sum(Y - a_0 - a_1 t)^2 \rightarrow \min$$

$$\frac{\partial S}{\partial a_0} = 0 \quad \frac{\partial S}{\partial a_1} = 0 \quad \rightarrow \begin{cases} n \cdot a_0 + a_1 \sum t = \sum y \\ a_0 \sum t + a_1 \sum t^2 = \sum y \cdot t \end{cases}$$

### **Mustaqil ishslash uchun nazorat savollari:**

1. Korrelyasion-regression tahlilning maqsadlari nimalardan iborat?
2. Juft, xususiy va ko‘plikdagi korrelyasiya koeffitsiyentlarining farqi nimadan iborat?
3. Qaysi hollarda korrelyasiya indeksi qo‘llaniladi?
4. Regressiya koeffitsiyentlarining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
5. “Eng kichik kvadratlар usuli” ning mohiyatini tushuntirib bering.
6. Normal tenglamalar tenglamasini yechish usullarini tushuntirib bering.
7. Real iqtisodiy jarayonlar bo‘yicha turli xildagi bog‘lanishlarga 10 ta misol tuzing.

### **2-mavzu. Ishlab chiqarish funksiyalari. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda ekonometrik modellardan foydalanish**

#### **1. Ko‘p omilli ekonometrik modellarni tuzish uslubiyoti.**

Ko‘plik korrelyasiyasi tasodifiy ko‘rsatkichlar guruhi o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi. Iqtisodiy tahlilda ko‘plik korrelyasiya usulini qo‘llanilishi hisoblash texnikasi yaratilganidan so‘ng kengaydi va qisqa muddatda katta yutuqlarga erishildi, ham iqtisodiy, ham matematika fanlarini rivojlanishiga o‘z ulushini qo‘shti.

